

## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EMOTSIONAL SO'ZLARNING TATJIMASIDA EKVIVALENTLIK MASALASI

*Saydullayeva Malika Sayidmurod qizi*

*Termiz davlat univrsiteti talabasi*

[saydullayevamalika983@gmail.com](mailto:saydullayevamalika983@gmail.com)

*Termiz Davlat Universiteti Xorijiy filologiya*

*fakulteti ingliz tili va adabiyot kafedras*

*Ramazonov Shohruh Nusratillo o'g'li.*

[rshakhrookh@gmail.com](mailto:rshakhrookh@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilidan ingliz tiliga yoki ingliz tilidan o'zbek tiliga emotsional rangga ega bo'lgan so'zlar yoki birikmalarni tarjima qilishda ekvivalentlik muammosi keng tahlil qilinadi. Maqola yozishdan asosiy maqsad – ikki til o'rtasida hissiy ma'nolarni yetkazish jarayonida yuzaga keladigan semantik, pragmatik va madaniy farqlarni aniqlash. Maqolada tarjima nazariyasiga oid zamonaviy qarashlar asosida emotsional birliklarning saqlanish darajasi misollar orqali yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** semantik, pragmatik va madaniy farqlar, ekspressivlik, madaniy adaptatsiya, mentalitet, emotsional leksika.

### KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida tarjimonlik faoliyati nafaqat axborotni yetkazish, balki matndagi emotsional-ta'sirchanlikni saqlash vazifasini ham bajaradi. Emotsional so'zlar nutqning ekspressivligini oshiradi, tinglovchi yoki o'quvchiga kuchli psixologik ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun emotsional birliklarning tarjimada ekvivalentligini ta'minlash tarjimashunoslik fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

*Emotsional so'zlar* – so'zlovchining ichki hissiy holatini ifodalovchi leksik birliklardir. Masalan: Ingliz tilida: love, hate, excitement, sadness

O‘zbek tilida: muhabbat, nafrat, hayajon, g‘am

Bu so‘zlar ma’no jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilish darajasi va emotsional kuchi farq qilishi mumkin.

*Ekvivalentlik* — tarjimada asl matndagi ma’no, uslub va emotsional ohangni saqlash jarayonidir. Emotsional so‘zlarda bu jarayon murakkablashadi, chunki:

ayrim so‘zlar bir to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobilga ega emas

hissiy rang-baranglik farq qiladi

madaniy konnotatsiyalar o‘zgaradi

Masalan: I’m devastated → “Men xafa bo‘ldim” (Lekin “devastated” so‘zi juda kuchli hissiy holatni bildiradi, bu tarjimada qisman yo‘qoladi.)

### 3. Madaniy omillarning ta’siri

O‘zbek va ingliz tillarida hissiyot ifodalash darajasi turlicha:

Ingliz tilida ochiq hissiy ifodalar ko‘p ishlatiladi

O‘zbek tilida esa ba’zan hissiyotlar bilvosita, kinoya yoki iboralar orqali ifodalanadi

Bu holat tarjimada ekvivalentlik muammosini kuchaytiradi.

Emotsional so‘zlar semantik jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Subyektiv baholovchanlik

2. Ekspressivlik

3. Konnotativ ma’no qatlamining ustunligi

Misol uchun, I adore you—men seni juda yaxshi ko‘raman. “adore” sozi oddiy “love” so‘zidan kuchliroq.

I hate this—men bundan nafratlanaman. Ba’zi matnlarda “juda yomon ko‘raman” yumshoqroq mos keladi.

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, tarjimada faqat lug‘aviy muvofiqlik emas, balki hissiy intensivlikni saqlash ham muhim.

Pragmatik va madaniy tafovutlar

O‘zbek va ingliz jamiyatlarida his-tuyg‘ularni ifodalash uslubi turlicha:

Ingliz tilida hissiy ifoda ochiq va bevosita

O'zbek tilida esa kamtarona, bilvosita, metafora va iboralar orqali ifodalanadi

Masalan: I'm broken jumlasini ko'pincha psixologik holatni bildiradi. Uni so'zma-so'z "Men singanman" tarzida tarjima qilish noto'g'ri bo'ladi. Mos variant: "Ichimdan ezildim".

Emotsional leksika — bu hissiy holatlarni, baholashlarni, ruhiy holatlarni ifodalovchi so'zlar to'plamidir [Apresyan, 1974]. Bu so'zlar ko'pincha konnotatsiyalarga ega bo'lib, ularning ma'nosi kontekstga qarab o'zgaradi.

Masalan, o'zbek tilidagi "g'amgin", "dilbar", "ko'ngli to'q", "ko'ngli noxush" kabi

birliklar ingliz tiliga o'girilganda to'g'ridan-to'g'ri mos keladigan so'z topilishi mushkul.

### МУХОКАМА

Quyida mashhur amerikalik yozuvchi F. Scott Fitzgeraldning "The beautiful and damned" asaridan bir nechta misollar keltirilgan:

*Umidsizlik va ruhiy tushkunlik.* Inglizcha (mazmuniy misol):

Anthony Patch feels an inner emptiness despite his luxurious lifestyle, realizing that wealth cannot cure loneliness.

O'zbekcha tarjima g'oyasi: Anthony Patch hashamatli hayot kechirsa ham, ichki bo'shliq va yolg'izlikdan qutula olmaydi.

Tarjima muammosi: "inner emptiness" — "ichki bo'shliq" deb berilganda hissiy chuqurlik qisman yo'qoladi.

*Sevgi va ruhiy qaramlik.* Inglizcha (mazmuniy misol): Gloria sees love not as peace, but as a dramatic and consuming force that defines her identity.

O'zbekcha variant: Gloria muhabbatni xotirjamlik emas, balki uning butun hayotini egallab oladigan kuch sifatida ko'radi.

Bu yerda "consuming force" so'zini oddiy "kuch" deb tarjima qilish yetarli emotsiyani bermaydi.

*Orzu va umidsizlik o'rtasidagi holat*

Inglizcha (mazmuniiy misol): Anthony constantly dreams of success, but his fear of effort slowly destroys his motivation.

O'zbekcha tarjima: Anthony doimo muvaffaqiyat haqida orzu qiladi, ammo mehnatdan qo'rquvi uning ichki kuchini sekin-asta so'ndiradi.

*Ruhiy sinish holati.* Inglizcha (mazmuniiy misol): Gloria feels beautiful on the outside but spiritually damaged inside.

O'zbekcha tarjima: Gloria tashqi tomondan go'zal bo'lsa-da, ichki dunyosi vayron bo'lganini his qiladi.

Bu yerda "spiritually damaged" so'zini oddiy "xafa" deb tarjima qilish katta semantik yo'qotish bo'ladi.

#### XULOSA

Emotsional so'zlarning tarjimasida to'liq ekvivalentlikka erishish har doim ham mumkin emas. Tarjimon nafaqat so'z ma'nosini, balki uning pragmatik, stilistik va madaniy jihatlarini ham hisobga olishi zarur. Shu sababli, tarjimada funksional va dinamik ekvivalentlik usullaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Nafaqat emotsional so'zlarni, balki boshqa so'zlarni ham tarjima qilinayotgan til madaniyati va kontekstga moslab tarjima qilish muhim hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Apresyan, Yu. D. (1974). *Leksicheskaya semantika*. Moskva: Nauka.
2. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge
3. F. Scott Fitzgerald "The beautiful and damned "
4. EMOTSIONAL LEKSIKAGA OID SO'ZLAR VA ULARNING TARJIMADA SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI Rahmonova Mohinur
5. Nida, Eugene A. *Toward a Science of Translating*